



**NAMANGAN VILOYATI MAKTABGACHA  
VA MAKTAB TA'LIMI BOSHQARMASI BOSHLIG'INING  
TOSHKENT SHAHRIDAGI ADJU UNIVERSITETI REKTORI BILAN  
HAMKORLIGIDAGI QO'SHMA QARORI**

**Namangan viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi hamda Toshkent shahridagi Adju universiteti hamkorligida  
"Adju universiteti rektori olimpiadasi"ni o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-son Farmoni, 2020-yil 6-noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4884-son qarori, 2018-yil 30-noyabrda "Toshkent shahridagi Adju universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4041-son qarorlarida belgilangan vazifalar hamda umumta'lim maktablarida aniq, tabiiy fanlar va xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish, o'qitish sifati bo'yicha xalqaro mezon va standartlarga muvofiq yuqori ko'rsatkichlarga erishishga zamin yaratish maqsadida **qaror qilamiz:**

1. Namangan viloyatidagi umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari o'rtasida matematika fanidan ingliz tilida Toshkent shahridagi "Adju universiteti rektori olimpiadasi" (keyingi o'rinlarda – olimpiada) o'tkazilsin.

2. Olimpiada Nizomi (keyingi o'rinlarda – Nizom) 1-ilova, olimpiadani tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Olimpiada 2024-yilning 20-aprel kuni Davlatobod tumani, Yuksalish massivi, Tadbirkor MFYda joylashgan 92-maktabda tashkil qilinsin va o'tkazilsin.

4. Tashkiliy qo'mitaga:

olimpiada o'tkaziladigan joyda zarur shart-sharoitlar yaratish;

hakamlar hay'ati tarkibi, apellyatsiya komissiyasi a'zolari, nazoratchilar ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash;

olimpiada materiallarining maxfiyligini ta'minlash hamda olimpiadani Nizom talablari asosida o'tkazish;

olimpiada tashkil etilishi, o'tkazilishi va natijalari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida yoritib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Barcha tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlariga:

olimpiada ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish hamda joriy yilning 13-aprel sanasiga qadar tashkiliy qo'mitaga taqdim etish;